San'at olamidagi chamanzorlar

Sayfiddinova Maftuna Dilshod qizi
JDPI “Musiqa madaniyati” fakulteti Cholg’u ijrochiligi
yo’nalishi 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar M.Xolbekov
Vokal va cholg’u ijrochiligi kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya

Har kim har bir narsani o'z qarichi bilan o'lchaydi, deganlari rost gap. Inson biror voqeani ko'rdimi, eshitdimi albatta u fikrlaydi. Bu fikr yaxshi yoki yomon bo'ladi. Har bir narsani yaxshilik uchun qiladiganlar va yaxshilikka undovchi buyuk qudrat bu - San'at va San'atkorlardir. Inson nimadandir yashash uchun kuch oladi. Yashayotgan olamidagi yomonliklardan uni himoya qiluvchi, uni mafkuraviy immunitetni kuchaytiruvchi narsalar bor. Bular san'at, sport va ommaviy axborot vositalaridir. Inson shunday yaralganki u har narsaga ya'ni go'zallikka intilib mo'jiza yaratishi yoki qabohatga intilib o'zidan ojiza yaratishi mumkin. San'at olamida o'z chamanzorini yarata olganlar ular chinakam ezgulik va yaxshilik yaratuvchilaridir. Ushbu maqolada o’zbek san’atida bog’ yaratgan ijodkorlar haqida gap boradi.

Аннотация

Это правда, что каждый измеряет все своим возрастом. Независимо от того, видит ли человек или слышит событие, он, конечно, думает. Эта идея будет хорошей или плохой. Это Искусство и Художники, которые делают все для добра, и великая сила мотивирует добро. Человек получает силы жить от чего-то. Есть вещи, которые защищают его от зла мира, в котором он живет, укрепляют его идеологический иммунитет. Это искусство, спорт и СМИ. Человек создан таким образом, что он может творить чудеса, стремясь ко всему, то есть к красоте, или он может создавать слабость, стремясь ко злу. Те, кто умеют создавать свой чаманзар в мире искусства, являются творцами истинной добра и доброты. Эта статья о творцах сада в узбекском искусстве.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, maqom, baxshichilik, katta ashula, hofizlik.

Ключевые слова: музыка, искусство, маком, бахшичилик, большое пение, хафиз.

Musiqa san'ati qachon va qanday paydo bo'lgan? Bu savolga javob berish uchun insoniyatning qadimiy tarixiga bir nazar tashlash lozim. Ma'lum bo'ladiki boshqa san'atlar (Raqs rassomlik va boshqalar) kabi musiqa san'atining rivojlanishi asta-sekinlik bilan paydo bo'la boshlagan. Ibtidoiy odamlar o'zligini anglash jarayonida musiqa muhim o'rin tutgan. Chunki musiqa vositasida uning mashaqqati mehnati bilan to'plangan qimmatli tajribalari, o'zini o'rab turgan atrof-muhitga bo'lgan faol munosabati yotadi. O'zbek xalqining juda boy qadimiy tarixi mavjud bo'lib, bu tarixda o'chmas iz qoldirganlar chinakam olqishga sazovordir. Ularning qilgan mehnati sabab hozirgi kunda o'zbek san'ati hamisha qardosh xalqlar uchun, o'zining "Ohanrabo" kabi o'ziga tortuvchi kuy ohanglarini namoyish qilib kelgan va kelmoqda. Hayotning murakkab sinovlarida o'zining ko'z nuridan, huzur halovatidan voz kechib ilm-u hunarga bag'ishlanganlar san'at olamida ko'plab topiladi.

Sen San'atkor bo'lmoqchimisan? Demak sen hamisha uning zalvorini ko'tarishga, kuchli matonat sohibi bo'lishga, sabr toqat bilan o'zligini yo'qotmagan holda hamisha oldinga intilib yangilik yaratishga, sen yaratganing insonlar uchun ezgulik berishiga majbursan. San'at olami shunday, uning mehnati qay darajada mashaqqatli bo'lsa muvafaqqiyatga erishgandagi g'alaba zavqi ham shu darajada totli bo’ladi. O'zbek musiqasi asosan 3 turga: Baxshichilik, Katta ashula va Maqom san'atiga bo’linadi. Musiqaga hamisha uni tinglovchilari unga baho beradi va unga yangilik kiritilishiga asosiy sababchilaridan biri sifatida ishtirok etadi. Xususan bunday san'at kishilarimizga bizning buyuk tariximizni anglab uni yosh avlodga singdiruvchi hamisha oddiy xalq orasidan chiqqan baxshilarimiz misol bo'la oladi. Bizning eng buyuk qadriyatlarimizni o'zida mukammal jamlagan dostonlarimiz hisoblanadi. Bular: " Alpomish", "Kuntug'mish", "Go'rog'li" kabilardir.

Katta ashula- mukammal ijro mahoratini talab qiluvchi hech bir cholg̕u jo'rligisiz ijro etiluvchi, keng diapazon talab qiluvchi murakkab ijro mahoratini o'zida mujassam etgan. Buyuk Hofizlarimizdan Boltaboy hofiz, Hamroqulqori, Mamatbuva Sattorov, Akbarqori Haydarov, Erkaqori Karimov, Ma'murjon Uzoqovlar. Bu hofizlar mazkur janrning mahoratli ijrochilari edilar. Haqiqatdan ham bunday buyuk ustozlar san'atiga nazar solar ekanmiz, ulardagi professional ijro turida, ustoz-shogird an'analarida, o'zbek san'atiga nisbatan chuqur hurmatni ko'rishimiz mumkin.

Maqom nima? "Maqom" arabcha "o'rin" "joy" musiqa islohotida esa cholg'ularda" joy" ma'nosini bildiradi. Maqomlarimiz hamisha "Elita" uchun ya'ni yuqori

darajadagi kishilar uchun ijro qilingan va tinglangan. Bu san'at turi mazmunan juda chuqur ildizga ega, milliy ohanglarni o'zida to'liq aks ettira olgan san'at turidir. Maqom ijro etuvchi va bunga qiziquvchi ya'ni uni tinglovchi, to'plovchi kishilar o'ta madaniyatli va yuksak mahoratga ega òz ishining ustalari hisoblangan. Ilk bor VII-VIII asrlarda xalq musiqasi negizi va mahalliy professional ijrochilik an'analarining rivoji yirik turkumli janrlar shakllanishiga olib keldi. Jumladan, Borbod ijodiga mansub "Husravoniy" turkumi. IX-X asrlarda maqomsimon cholg'u va ashula – cholg'u asar va turkumlar rivojlanadi. XI-XIII asrlardan boshlab, to XVII asrgacha Yaqin va O'rta Sharqda "Duvozdahmaqom" – 12 maqom turkumi keng tarqalib, musiqa amaliyotida qo'llanib keldi.

XVIII asrda Buxoroda yangi turkum – "Shashmaqom" uzil-kesil shakllandi. XIX asrda "Xorazm maqomlari" turkumi va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari vujudga keladi. Keyinchalik "Shashmaqom" va boshqa turkumlar asosida maqom asarlarining yangi uslublari va ko'rinishlari zamonaviy talqinda rivoj oladi.

Maqomchilik san'ati qonunlarini sharhlash, asoslash, musiqa nazariyasi va amaliyotiga oid masalalar IX asrdan boshlab "musiqiy risolalarda o'z aksini topdi. Musiqa ilmi, jumladan, maqomchilik san'ati rivojiga Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Qutbiddin She'roziy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddiy Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi musiqa nazariyotchilari ulkan hissa qo'shganlar. Maqomlarni tartiblashda, muayyan tizimga tushirishda Urmaviy va Sheroziylarning (XIII-XIV asr) xizmatlari katta.

Xulosa qilib aytganda òz chamanini yaratishga intilgan inson chamanzorni nafasini his qilishi aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, san'atkor bo'lishni istagan inson San'at olamida yashab faqat va faqat uning havosidan nafas olishi lozim.

Adabiyotlar ròyxati:

1. Musiqa tarixi. Ibroximov O. Toshkent 2018
2. O'zbek musiqa tarixi. A.Jabborov 2018 Toshkent
3. Maqom asoslari. Is'hoq Rajabov (1992)
4. **O'XM** t.I – O'zbek xalq musiqasi. To'plovchi va notaga oluvchi Yu. Rajabiy (I. Akbarov tahriri ostida). Tom I. – Toshkent, 1957